

BUXORO AMIRLIGIDA MADANIY HAYOT

Sayidaxon Nurmatova Mirkarimovna
Fargʻona viloyati Margʻilon shahar
3-sonli umumiy oʻrta taʼlim maktabi
Tarix fani oʻqituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Buxoro amirligida madaniy hayot, amirlikning madaniy hayotida xattotlik, Buxoroning XIX asr birinchi yarmida ijod etgan tarixchi olimi Muhammad Yaʼqub ibn Doniyolbiy Buxoriy, xonlik tarixining turli muammolari haqida batafsil bayon qilingan.

Kalit soʻzlar: Buxoro amirligi, madaniy hayot, xattotlik, iqtisodiy hayot, vaqf yerlari.

Kirish:

Tarix va tarixiy jarayonlar, siyosiy-tarixiy vaziyat ularning sodir boʻlishidagi asosiy sabab va xususiyatlarini ilmiy tomondan tadqiq qilishda har taraflama tahlil etish tarixiy haqiqatning paydo boʻlishiga yuqori omil hisoblanadi. Hozirgi vaqtgacha tadqiqotchilar tarafidan oʻzbek xonliklari tarixini oʻrganishga koʻplab marotaba murojaat etilgan va amirlik tarixining turli masalalari yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan boʻlsada, hozirgi kungacha xonliklar davri tarixining hamma muammolari toʻligʻicha tadqiq etib boʻlingan deb boʻlmaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

XVIII asrning oxirlariga kelib Buxoro amirligida iqtisodiy hayotning birmuncha yuksalishi madaniy hayotga ham taʼsir qilmasdan qolmadi. Binobarin, avvalgi davrlarda takomillashgan maktab va oliy taʼlim beruvchi madrasalar faoliyati bu vaqtda ancha yuksaldi. Boshlangʻich taʼlim beruvchi maktablar amirlikning hamma yirik qishloqlarida, shaharlarining hamma mahallalarida mavjud boʻlib, bu maktablarda bolalarning ilk savodi chiqarilgan. Maktablarda arab alifbosida savod chiqarilib, Qurʼonning ilk oyatlari yodlatilgan. Shariatga doir dastlabki saboqlar oʻqitilgan.

Madrasa oʻqituvchilari-mudarrislar va boshqa xizmatchilar maoshlari, talabalar nafaqalari, kutubxona xarajatlari, taʼmirlash ishlari va boshqalarga ketadigan mablagʻlar vaqf yerlaridan keladigan foyda hisobidan qoplangan. Madrasalar odatda hukmdorlar, amaldorlar, nufuzli shaxslar, yirik din peshvolari va savdogarlar tomonidan koʻp hollarda pishiq gʻishtdan ikki qavatli qilib qurilgan.

Natijalar:

Madrasa talabalari diniy bilim boʻlgan Qurʼoni Karim, fiqh, shariat asoslari, diniy-axloqiy adabiyotlar bilan birga til, adabiyot tarix, falakiyot, mantiq, falsafa,

handasa kabi dunyoviy va aniq fanlardan ham ta'lim olganlar. Shunga qaramasdan, bu davrda madrasalarda diniy-axloqiy ta'limga asosiy diqqat qaratilib, dunyoviy ta'lim berish qaraganda orqada qolgan edi. Bizning vaqtlarimizgacha asrab qolgan me'morchilik yodgorliklari, shuningdek yozma manbalar amirlikda adabiyot, tarix, xattotlik va musiqa san'ati, me'morchilik takomillashganligidan dalolat beradi.

Amirlikning madaniy hayotida xattotlik ham muhim o'rin egallagan edi. Bu davrda Samarqand, Buxoro, Shahrisabz kabi shaharlarda xattotlik maktablari mavjud edi. O'z kasbining ustasi bo'lgan mohir xattotlar davlat va xo'jalik hujjatlari tayyorlashda, ilmiy-badiiy asarlar yozish va ko'chirishda me'moriy inshootlarga turli xil yozuvlarni chiroyli naqshlar shaklida bitishda mashhur bo'lganlar. Amir Haydar saroyida munshi lavozimida xizmat qilgan Mirzo Sodiq Munshiy XIX asr boshlaridagi adabiy muhitning ko'zga ko'ringan namoyondalaridan biri edi. Undan meros qolgan she'riy Devon – "Devoni Sodiq Munshiy" hamda she'riy usulda bitilgan tarixiy asari uning adabiyot rivojiga qo'shgan hissasini ko'rsatadi. Bu vaqtda amirlikning turli shaharlarida yashab ijod qilgan ko'pgina shoirlar ijodida xalqparvarlik, jabr-zulmga qarshi isyonkorlik kayfiyati kuchli bo'lib, ular ko'p hollarda hukmdorlar va amaldorlar tarafidan quvg'inga olingan.

Muhokama:

Buxoroning XIX asr birinchi yarmida ijod qilgan tarixchi olimi Muhammad Ya'qub ibn Doniyolbiy Buxoriy edi. U "Gulshan ul-muluk" degan asar yozib qoldirgan. Bu asar ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismida Buxoroning qadimgi tarixi, uning hukmdorlari shajarasi bayon qilingan. Asarning ikkinchi qismida esa O'rta Osiyoning XVIII va XIX asr boshlaridagi tarixi bayon qilingan. XIX asrda yozilgan Mirzo Shams Buxoriyning "Bayoni ba'zi havodisoti Buxoro, Xo'qand va Qoshg'ar" kitobi ham tariximiz uchun asosiy manba sanaladi.

Xiva va Qo'qon xonlaridan farqli ravishda, mang'it hukmdorlar madaniyat, xususan, adabiyot taraqqiyotiga qiziqish bilan qaraganligi, adabiy ijod bilan bog'liq biron-bir masalani hal qilib berish yoki ijod ahliga muhit yaratib berganliklari sezilmaydi. Bu davrning o'ziga xos iste'dod egasi Muhammadniyoz Nishotiy o'rtacha, vaqti kelganda kambag'allik va sargardonlikda yashagan edi. Asardagi obrazlardan biri ishq o'zining dadil va oqilona qarorlari, harakatlari bilan turli xil mamlakatlarning turli qarashlarga ega hukmdorlarini bir bitimga olib keladi va barchaning muhabbatiga sazovor bo'ladi.

Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, O'zbekiston davlatchiligi tarixida Buxoro amirligi davlatining ham o'z o'zni va mavqei bo'lib, mang'itlar hukmronligi vaqtida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda qator yuksalishlar bo'lib o'tdi. Biroq, mamlakat iqtisodiy tomondan qudratli va siyosiy jihatdan mustahkam emas edi. Ko'p hollardagi iqtisodiy tanglik, siyosiy beqarorlik, o'zaro nizolar XIX asrning ikkinchi yarmida

davlatning katta hududlarini Rossiya tomonidan bosib olinishiga sabab bo'ldi. Buxoro amirlari 1920 yilga qadar Rossiyaga vassal holatda taxtni egallab turdilar.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Azizov I. XIX asr so'nggi choragi - XX asr boshlarida Buxoro amirligida soliq tizimi. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2019.
2. "Buxoro tarixi masalalari". Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. – Buxoro, 2016
3. "XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Buxoro". Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. – Buxoro, 2016.
4. Jumanazarov A. Buxoro ta'lim tizimi tarixi. – T.: Akademiya, 2017.